Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 1

YOSHLARNI MA’NAVIY TARBIYALASHDA “MAQOM FALSAFASI”NING O‘RNI

Dilshodjon Baxodirjon o‘g‘li Toshaliyev*
Farg‘ona davlat universiteti Vokal va cholg‘u ijrochiligi kafedrasi katta o‘qituvchisi Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
✉ dilshod92note@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola o‘zbek milliy qadryatlarining musiqiy ifodasi hisonlangan maqom san’ati hamda ushbu san’atning yoshlar tarbiyasi, ulardagi musiqiy dunyoqarashni sog‘lom shakllanishidagi o‘rni haqida yozilgan bo‘lib, maqolada maqomlarda kuylanadigan g‘azal baytlarining falsafiy mazmun-mohiyati haqida ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar

maqom falsafasi, ma’naviy dunyoqarash, milliy qadryat, tarbiya.

DOI: 10.5281/zenodo.23279167

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo‘lishdek hayotiy talablarni qo‘ymoqda.

Shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda o‘quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatlilik, diniy va milliy bag‘rikenglik, ma’naviy yetuklik kabi fazilatlarni shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda.

“Yoshlar tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab mafkuraviy jarayonlarga to‘g‘ri baho bera olish, ijtimoiy muammolarni hal etishda to‘g‘ri qaror qabul qilish, hayotda o‘z o‘rnini topish bilan bog‘liq bo‘lgan aniq maqsadlarni shakllantira olishga o‘rgatish, buning natijasi o‘laroq, oila-jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni uzilib qolishining oldini olish, loqaydlik, huquqbuzarlik, «ommaviy madaniyat»ning turli ko‘rinishlaridan saqlash imkoni yaratiladi”[1].

O‘zbekiston Respublikasini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’naviy rivojlantirishning muhim omili bo‘lgan yoshlar tarbiyasi shaxsan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuskorligida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Shu yilning iyul oyida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilinishi buning yaqqol tasdig‘idir.

Tarbiyalash deganda har tomonlama yetuk – o‘zida axloqiy poklik, ma’naviy boylik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan insonni yetishtirish nazarda tutiladi. Tarbiyalashdagi vazifalar orasida kishilarni estetik did va ehtiyojlarini shakllantirish katta rol o‘ynaydi.

Estetik tarbiya tizimida san’at yetakchi o‘rinda turadi. Hozirga qadar estetik tarbiyaning mazmuni hamda vazifalari turlicha talqin qilib kelingan. Ko‘pchilik olimlar va tarbiyachi-murabbiylar estetik tarbiyaga

badiiy idrok, did va ehtiyojlarni tarkib toptirish vositalari, shakllari hamda usullarining tizimi sifatida qaraydilar. Hozirga qadar yoshlarni shunday uslubda tarbiyalab kelinmoqda. Lekin, yoshlarni bunday bir tomonlama tarbiyalash ko‘ngilsiz natija berishi mumkin. “YA’ni, biz so‘zning tor ma’nosida “estetlarni”, boshqacha aytganda badiiy shakllarni yaxshi biladigan, faqat tashqi go‘zallikni idrok etadigan, lekin ma’naviy jihatdan qashshoq, ...san’at asarlarining mazmunidagi go‘zallik va xunuklikni ko‘rmaydigan hamda anglolmaydigan kishilarni yetishtirishimiz mumkin”[2,67]. Tarbiyalashda estetik didni shakllantirishning o‘zi yetarli emas. Yoshlarni ma’naviy dunyoqarashini boyitishda ularga bevosita ta’sir o‘tkazuvchi omillarning yaxshi va foydalisini, yomon va zararlisini ajratib berish darkor.

Shu bois, yoshlar tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan musiqa san’ati haqida to‘g‘ri tushunchalar berish, ularda musiqiy didni shakllantirish bugungi kunning dolzarb mavzularidandir.

Musiqa jamiyat rivojlanishining hamma bosqichlarida ham insonni tarbiyalash va ma’naviy boyitishning bir vositasi sifatida xizmat qiladi. Hozirgi bosqichda, ya’ni texnikaning mo‘lligi, hayot maromining tezlashuvi hamda inson o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan axborotlarning ko‘payishi aqlni rivojlantirsa-da, hissiyotlarni ma’lum darajada qashshoqlantirishi ham mumkin. Ana shu hodisa yuz bermasligi uchun mamlakatimizda shaxsni har tomonlama kamol toptirishning barcha tadbirlari qo‘llanilishi lozim. Bu vazifani amalga oshirishda musiqa katta o‘rin egallaydi. Bundan tashqari ommaviy madaniyatning salbiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan horijiy yengil-yelpi musiqalarni kirib kelishi va yoshlar ongiga, yurish-turishi, kiyinish madaniyati va muomalasiga ham bevosita ta’sir o‘tkazayotganini inkor etib bo‘lmaydi. Bunga qarshi kurashish yoshlarda musiqiy did va musiqiy immunitetdi hosil qilish bilan amalga oshiriladi. Ya’ni, yoshlar nega oson tushiniladigan, quvnoq, yengil hazm qilinadigan musiqani muntazam tinglash tarbiyaga salbiy ta’sir ko‘rsatishini anglashlari kerak. Mashhur musiqachi-pedagog D. Kobalevskiy shunday degan edi: “Chinakam san’at modalar ta’sirida buzilmaydi, u asrlar davomida yashaydi va insoniyatning ma’naviy dunyosini boyitadi, o‘zi eskirmaydi. Ko‘ngilochar musiqa esa odatda o‘tkinchi modalarning beqaror qonunlariga bo‘ysunadi. Eng muvaffaqiyatli estrada qo‘shiqlari ham bir yilcha, bir necha oy, xatto, bir necha haftagina yashaydi. Ko‘ngilochar asarlar darrov me’daga tegadi, o‘z jozibasini yo‘qotadi va yanada qiziqarliroq narsaga ehtiyoj tug‘diradi, keyin undan ham qiziqarli narsaga intilish paydo bo‘ladi va bu hol cheksiz davom etaveradi”[3,29].

Musiqa faqatgina vaqt o‘tkazish, ko‘ngilxushlik manbai bo‘lib emas, balki nafis hissiyotlarni uyg‘otadigan, ezgu g‘oyalar bilan yo‘g‘rilib, oliy maqsad sari yetaklash xususiyatiga ham egadir. Agar asl musiqa namunalarini tushunib tinglansa, ana shu holatda ham inson ma’naviy tarbiyalanishi, qalbining so‘z yetib bora olmaydigan joylarini ham oziqlantirishi mumkin. Bunday musiqa asrlar davomida insonlarni ma’naviyatini boyitib, o‘zi eskirmay kelayotgan – Maqomlardir.

Maqomlarni bunday e’tirofga ega bo‘lishiga yetarlicha sabab va dalillar mavjud. Chunki, maqomlarning kuy ohangi mukammal pardalar yig‘indisidan iborat. Bu haqda o‘tmishda yashab o‘tgan bir qator allomalar – Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Safiuddin Urmaviy, Hoja Abdulqodir Marog‘iy, Darvesh Ali Changiy, Alisher Navoiy kabi o‘z davrining yetuk arboblari musiqaga oid risolalarida batafsil bayon etganlar. Qomusiy olimlarning maqomlar masalasida olib borgan ilmiy izlanishlari shundan darak beradiki, mazkur janr o‘zining nazariy, ilmiy va eng asosiysi diniy-falsafiy asoslariga ega. Shu bilan birga maqomlarning ashula yo‘llarida mutafakkir shoirlarning yuqori saviyali g‘azallari kuylanganligi ham ushbu durdona asarlar chuqur falsafiy mavzularni tarannum etishini ko‘rsatadi. Hususan, XVIII asr o‘rtalarida Buxoroda shakllangan Shashmaqom (olti maqom)dagi ashula yo‘llariga aytilgan she’r matnlari Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Fuzuliy kabi mumtoz adabiyot sultonlari tomonidan bitilgan g‘azallardan iboratligi mazkur maqom yo‘llarining yuqori saviyali, ziyolilar va hos tinglovchilar uchun yaratilgan musiqa ekanligidan dalolat beradi. Demak, maqomlarni tinglash va tushunish insonni ziyoli bo‘lishiga ham sabab bo‘ladi.

Maqom namunalarining asosiy sho‘balariga aytilgan barcha g‘azal matnlarida ilohiy ishq kuylanadi. Shashmaqomdagi ashula bo‘limi sho‘balariga ularning kuy yo‘liga mos vazndagi g‘azallarning eng sara namunalari tanlab olinib ijro etilganki, tinglovchi asarning ohang va matn mazmunini tushungani sari ma’naviy dunyosi boyib boraveradi.

XULOSA

Mumtoz musiqa nazariyotchisi va ijrochilarining zimmasidagi eng asosiy vazifa maqomlarni nazariy, amaliy va diniy-falsafiy jihatdan o‘rganib, bu haqda o‘quvchi yoshlar va talabalarga to‘laqonli tushuncha berishdan iborat. Shunda yoshlarimizda musiqiy did rivojlanib, asl va sun’iy san’atni ajrata olish qobiliyati shakllanadi. Natijada milliy g‘urur, ajdodlar merosiga bo‘lgan xurmat ortib boradi. Bunday yoshlar ommaviy madaniyatning salbiy turlari va ma’nisiz, jazavaga tushadigan, to‘qlikka-sho‘xlik qabilida yaratilgan ayrim xorijiy musiqalarga ergashib ketmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1033-sonli qarori. 07.07.2020 yil.
2. Alijon Hasanov. Musiqa va tarbiY. “O‘qituvchi”, Toshkent, 1993 yil. 67-bet.
3. Muzikalnoye obrazovaniye v sovremennom mire. M., «Sovetskiy kompozitor», 1973 yil. 29-bet.